

AMIR TEMURNING MAHOBATLI OTLIQ HAYKALI YARATILSHI

Samiyev Sherzod Bo‘ri o‘g‘li

O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti

Haykaltaroshlik yo‘nalishi 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: Mustaqil O‘zbekistonimiz – uzoq tarixiy madaniyati boy qadimiylar davlat bo‘lib, O‘rta Osiyodagi yagona mamlakatdir. Toshkentning Amir Temur xiyobonida qad ko‘targan Amir Temur haykali haykaltaroshlikning tengsiz na‘munalaridan biri ekanligi shubhasiz. Amir Temur nomidagi xiyobon — shaharning alohida belgilangan maydoni, boshlang‘ich koordinatasi timsolidir. Madaniyat, san’at, fanning alohida gullagan payti o‘sha davr bilan belgilanadi.

Kalit So‘Zlar: Amir Temur, Ilhom Jabborov, O‘zbekiston, Kamol Jabborov, adolatli hukimdar, milliy davlatchilikni shakllantirish

Amir Temur shaxsini Toshkentning markaziy qismi ramzi sifatida tanlash tasodifiy emas. Buyuk sarkarda va davlat arbobi, o‘zbek davlatchiligi asoschisining timsoli poytaxt aholisini mustaqil davlatni yaxlit birlashtirishga, buyuk ajdodlarning ezgu ishlarini davom ettirishga chaqiradi. 1994-yil 31-avgust, mustaqillik arafasida taniqli haykaltarosh Ilhom Jabborov va Kamol Jabborovlar bronzadan quyma yasalgan biz bugun ko‘rib turgan otliq Amir Temur haykalini mana shunday ajoyib ko‘rinishda yaratishdi va O‘zbekistonimizga taqdim etildi. Yodgorlik haqida gapirishdan oldin mazkur xiyobonning yaratilish tarixiga, chavandoz haykaligacha qanday yodgorliklar bo‘lganligiga e’tiboringizni qaratmoqchimiz.

Mazkur xiyobonda dastlab 1882-yil Toshkentda vafot etgan general-gubernator Konstantin Kaufman qabri joylashgan edi. O‘tgan asr bosqlarida bu yerda Konstantin xiyoboni bo‘lgan va Toshkentdagagi birinchi haykaltaroshlik kompozitsiyasi o‘rnatalgan edi. 1919 – 1926-yillarda bu yerni o‘sha paytlarda rusum bo‘lgan konstruktivistik uslubda ishlangan, bir vaqtning o‘zida targ‘ibot vazifasini bajaruvchi «O‘roq va bolg‘a» yodgorligi bezab turar edi. Urushdan keyin esa xiyobonning “xo‘jayin”i Stalin haykali bo‘ldi. 1968-yilda Karl Marks monumentini o‘rnatalishdi. Monument 1993-yilgacha, haqiqiy xalq qahramoni – Amir Temur saylanguncha “yashadi”. Endilikda poytaxtimiz markazida xiyobon va metro bekatiga o‘z nomini bergen mashhur sarkarda jangavor otida viqor bilan o‘tiribdi. Hozirda buyuk sarkarda Amir Temur monumenti joylashgan yer tarixi Toshkent tarixida eng boy voqealar davri bo‘lgan.

Buyuk bobolarimizning ma’naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida toxtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bolgan bu mumtoz siymo buyuk sultanat barpo etib, davlatchilik borasida ozidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, buniyodkorlik, din va manaviyat rivojiga keng yol ochdi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov —“1993 yili Toshkent shahridagi Amir Temur xiyobonida o‘rnataladigan haykalni ilk bor muhokama qilganimiz esimda. Haykaltaroshlar taqdim etgan variantda Sohibqiron qo‘liga nayza tutgan holda tasvirlangan edi. Men bunga etiroz bildirib, Sohibqiron bobomiz qo‘lida nayza emas, otning jilovini tutib turgani ma’qul, degan fikrni bildirdim. – Buning ramziy manosi bor. Chunki, sultanatda nayza ko‘targan odamlar ko‘p bo‘lgan, ammo jilov Amir Temurning qolida bolgan. Bu mustahkam davlat tizimini qo‘lga mahkam tutib turishini anglatadi.

Shu bilan birga, buyuk ajdodoimizning ikkinchi qolini baland kotarib, dunyodagi barcha insonlarga tinchlik-omonlik, baxtu saodat tilayotgan asnoda aks ettirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Qolaversa, xalqimizda har bir ish bismilloh aytib, ong qol, o‘ng oyoqdan boshlanadi. Bu haykalda esa ot nima uchundir chap oyoqdan odim tashlayapti ”. Muhokama ishtiroychilarbu fikrga qo‘shilishdi va haykaltaroshlar bildirilgan fikrlar asosida yangi variantni yaratishdi. Haykal Amir Temurning o‘tirgan holatini ifoda etadi. Hukmdor jangavor kiyimda, go‘yoki g‘alabali yurishdan mardonavor, viqor bilan qaytmoqda.

Amir Temur haykali shahrimizdagagi asosiy yodgorlik sanaladi. Amir Temur o‘rta asrlarning kuchli siyosiy arbobi va sarkardasi bo‘lib, 200 yil hukm surgan va Kavkazdan Xitoygacha, Sibirdan Hindistongacha hududni egallagan yirik va yagona imperiyani tuzgan. Temurning salobatli turishi va yuqoriga cho‘zilgan qo‘li homiylik, xalqqa tinchlik va xotirjamlik va da berishining ramzidir. Shahrimiz haykaltarosh Ilhom

Jabborovning yangi ijod namunalari bilan boyshiga, ular qadim o'zbek zaminida asrlar davomida turishiga umid qilib qolamiz. Amir Temur merosi shijoat, mardlik va adolat timsoli sifatida yuksak qadr va e'zozga loyiq. Sohibqiron o'z davrining eng qudratli davlati asoschisi, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat homiysi, dunyo sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk bunyodkordir.

Mamlakatimizda milliy davlatchilikni shakllantirish, farzandlarimiz uchun hech kimdan kam bo'limgan hayot barpo etish, yoshlarni jismonan, aqlan va ma'nан yuksaltirish borasidagi barcha islohotlar Amir Temur bobomizning dunyoqarashi va tutumlariga mohiyatan uyg'un. Zotan, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, Amir Temurni anglash – o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug'lash – tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

Ulug' ajdodimiz o'z tuzuklarida "...amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech nima olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan bergenini olsinlar, uchinchi yili (oliq-soliq) qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'sinlar", deb yozadi. Bugun mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilib, tadbirdorlarga keng imtiyozlar berilayotgani Sohibqiron tutumi avlodlari tomonidan hayotga joriy etilayotganining yorqin ifodasidir.

Haykaltarosh Temurning adolatlari hukumdar qiyofasini yoritib bera olganligi taqsinga loyiq. Sarkardaning birgina yuz qiyofasida uning misilsiz kuch qudrat sohibi ekanligidan, nigohidagi qarash esa uzoqni ko'ra bilishidan, soqolining tartibli joylashuvi donishmandligidan, boshidagi toj hukumdar ekanligidan asosli tarzda ijodkor tomonidan yuksak mahorat bilan ochib berilgan. O'ng qo'li yuqoriga ko'tarilgan holda hamisha oldinga ezgulikka, yorug'likka intilish, yuksalish va ulug'vorlikka da'vat qiladigandek, uni kutib olayotgan odamlar uzra mamlakatda tinchlik, osoyishtalik hukm surishini ma'lum qilmoqda. Sarkarda chap qo'li bilan olovli otini jilovlamoqda, Hukmdorning viqorli salobati va yarim bukilgan qo'li farovonlik va taraqqiyot ramzidir. Qilich – adolat, tinchlik, osoyishtalik ramzi. Qilich tutqichida morpech naqshidan haykaltarosh unumli foydalangan. Bu naqsh o'sish, ulg'ayish ramzi. Qilichda arab tilida "Kuch- adolatdadur" degan mashhur bitik yozilgan. Qalqonidagi islimiy naqshlar o'sish, ulg'ayish timsoli sifatida, markazidagi gumbaz ko'rinishidagi sakkizlik jipslikdan dalolat. Haykal o'rnatilgan tagkursida esa, buyuk Temurning "Kuch – adolatdadur" shiorining to'rt tilda yozilganligini ko'ramiz.

2009-yil noyabrida hukumat qaroriga muvofiq, Amir Temur xiyoboni tubdan qayta tiklandi: ko'pchiliginning yoshi 100 dan o'tgan keksa daraxtlar kesib tashlandi. Xiyobon hududida hashar uyushtirilib, tanib bo'lmas darajada o'zgartirildi, ko'rkam, go'zal va shinam bog'-xiyobon vujudga keltirildi. Turli manzarali daraxtlar, gullar ekilib, zamonaviy favvoralar o'rnatildi. O'zgarishlar natijasida xiyobon yorug' bo'ldi. Endilikda buyuk sarkarda Amir Temur haykali yanaham ko'rkam va tugallangan kompozitsiyani vujudga keltirib, poytaxtimiz zamonaviy ko'rinishini yanada jonlantirdi. Amir Temur haykali shahrimizdag'i asosiy yodgorlik sanaladi. Amir Temur o'rtalarning kuchli siyosiy arbobi va sarkardasi bo'lib, 200 yil hukm surgan va Kavkazdan Xitoygacha, Sibirdan Hindistongacha hududni egallagan yirik va yagona imperiyani tuzgan. Ustozlarimiz Ilhom va Kamol Jabborovlarning yangi ijod namunalari bilan boyshiga, ular qadim o'zbek zaminida asrlar davomida turishiga umid qilib qolamiz.

Foydalilanigan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. Amir Temur jahon tarixida, Parij, 1996;
2. Karimov I., Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin, Asarlar, 4-j., T., 1996;
3. Karimov I., Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir; Azaliy buyuklik mayekani; Sohibqiron kamolga yetgan yurt; Adolat va qudrat timsoli; Amir Temur — faxrimiz, g'ururimiz, Asarlar, 5-j., T., 1997.
4. Rtveladze E. V., Sayd o v A. X., Amir Temur v zerkale mirovoy istorii, Parij, 1996;
5. Alimov R. A., Sohibqiron Amir Temur (Metodik tavsiyanoma), T., 1995. Bo'riboy Axmedov, Abdulahad Muhammadjonov.
6. Islom Karimov "Yuksak manaviyat – yengilmas kuch". Toshkent 2009 yil "Manaviyat" nashriyoti.
7. Mustaqillik davri ozbek monumental haykaltaroshlik sanati. Toshkent 2011 yil "MEGA BASIM" nashriyoti